



## YOSHLARNI INNOVATSION TASHABBUSLARINI QO'LLAB QUVATLASHGA BERILAYOTGAN IMKONIYATLAR

G'ulomova Muslima Zarifjon qizi.

Toshkent farmatsevtika instituti Sanat farmatsiyasi yo'nalishi 1-kurs talabasi

Abdurahmonov Xasan Ibrohimovich

Toshkent farmatsevtika instituti F.f.b.f.d.(phd), dotsent

Abdujalilova Nafosat Umidjon qizi

Toshkent farmatsevtika instituti Farmatsiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

Djalgasova Asalxon Azat qizi

Toshkent farmatsevtika instituti Farmatsiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19970292>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-aprel 2026 yil

Ma'qullandi: 28-aprel 2026 yil

Nashr qilindi: 30-aprel 2026 yil

### KEYWORDS

Innovatsion rivojlanish, yoshlar siyosati, startup ekotizimi, texnopark, innovatsion infratuzilma, grantlar, investitsiyalar, inson kapitali, tadbirkorlik faoliyati, raqamli iqtisodiyot, ilmiy-tadqiqot, tijoratlashtirish.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada yoshlarning innovatsion tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashning nazariy-uslubiy va amaliy jihatlari kompleks tarzda tahlil etilgan. Maqolada innovatsion iqtisodiyot sharoitida yoshlarning inson kapitali sifatidagi o'rni, ularning ilmiy-texnik va tadbirkorlik faoliyatidagi faolligi asoslab berilgan. Shuningdek, O'zbekistonda yoshlar siyosati doirasida yaratilayotgan institutsional, huquqiy va moliyaviy mexanizmlar, xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarning mazmuni va ahamiyati yoritilgan. Maqolada startup ekotizimi, texnoparklar, innovatsion markazlar va grant dasturlarining yoshlar faoliyatini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Shu bilan birga, yoshlarning innovatsion faoliyatida uchrayotgan muammolar, jumladan, moliyaviy resurslarning cheklanganligi, tajriba va mentorlik tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda innovatsion loyihalarni tijoratlashtirishdagi muammolar ko'rib chiqilgan. Maqola yakunida ushbu muammolarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida innovatsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy drayveriga aylanmoqda. Ayniqsa, bilimga asoslangan iqtisodiyotda inson kapitali hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, yoshlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash strategik ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsion rivojlanish darajasi bevosita yoshlarning ilmiy-texnik faoliyatdagi ishtiroki bilan bog'liq. Yoshlar yangi g'oyalarni ilgari surish, startup loyihalarni yaratish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda yetakchi kuch hisoblanadi. O'zbekistonda ham yoshlar siyosati yangi bosqichga ko'tarilib, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor

qaratilmoqda. Xususan, Shavkat Mirziyoyev rahbarligida yoshlarning innovatsion faoliyatini rivojlantirish, ularning bandligini ta'minlash hamda zamonaviy kasblarga yo'naltirish bo'yicha keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek barqaror rivojlanish BMT tomonidan dunyoda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vaziyatni har tomonlama yaxshilash orqali butun insoniyat hayotini yaxshilash va turmush farovonligini oshirish, adolatli va barqaror jamiyat barpo etishga qaratilgan global tashabbuslar, maqsadlar majmuidir. "O'zbekiston-2030" taraqqiyot strategiyasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Barqaror rivojlanish maqsadlari"ga uyg'un bo'lib, biz o'z zimmamizga olgan barcha majburiyatlarni to'la va qat'iy bajarmoqdamiz,-deya takidlagan edi Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so'zlagan nutqida. Shuningdek, Prezidentimiz 2022- yil 24-iyun kuni "BRIKS plyus" formatidagi Global taraqqiyot masalalari bo'yicha yuqori darajadagi muloqotda ham ishtirok etib, global sheriklikni rivojlantirish va barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibini birgalikda ilgari surish masalalariga bag'ishlangan mazkur tadbirda xavfsizlik va barqarorlik borasidagi ko'p tomonlama hamkorlik, savdo va investitsiyalar, "yashil iqtisodiyot, yuqori texnologiyalar va innovatsiyalar, raqamlashtirish, transport va logistika, ekologiya, gumanitar sohalarda amaliy sheriklikni kengaytirish borasidagi muhim tashabbuslarni ilgari surgan edi. [6: 6-7b.] Ushbu maqolaning maqsadi shuki, yoshlarning innovatsion tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan imkoniyatlarni ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilish hamda mavjud muammolar va ularning yechimlarini asoslab berishdan iborat.

**Asosiy qism:** " Xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya muhitini yaratish muhim vazifamizdir. Innovatsiya bo'lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo'lmaydi. Bu sohadagi o'zgarishlarni xalqimizga keng targ'ib qilmasak, odamlarda ko'nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati, fan-texnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bo'lolmaymiz."

**Shavkat Mirziyoyev,**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**

" Innovatsiya " bu kishilar hayotini tubdan yaxshilaydigan ularni amalda qo'llash orqali foyda olinadigan bilim va bilimlarning majmuasi hisoblanadi. Bugungi kunda Innovatsiya atamasi hozirgi kunda keng ma'noda qo'llanilmoqda, uning ma'nosi ham bugungi kunga kelib asta sekinlik bilan o'zgarib bordi, va innovatsiyalarni amalda tatbiq etish orqali jamiyat va yoshlar innovatsion tafakkurining rivojlanishiga erishilmoqda. Shuningdek, zamonaviy yoshlar dunyoqarashida innovatsion faollikni shakllantirishga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va innovatsiyaning jamiyat barqarorligidagi ahamiyatini ochiq ko'rsatib berish, bu yoshlar dunyoqarashidagi innovatsion tafakkur rivojlanishining falsafiy mohiyatini va tarixiy rivojlanish bosqichlarini asoslab beradi.[3:9-26b] Innovatsion iqtisodiyot sharoitida yoshlarning o'rni beqiyosdir. Ular yuqori intellektual salohiyatga ega bo'lib, yangicha fikrlash, kreativ yondashuv va tez moslashuvchanlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Aynan shu omillar innovatsion g'oyalarni shakllantirish va ularni amaliyotga joriy etishda muhim rol o'ynaydi. Yoshlar global axborot makonining faol ishtirokchisi sifatida xalqaro tajribani tez o'zlashtiradi va uni milliy sharoitga moslashtirish imkoniyatiga ega. Natijada ular tomonidan yaratilayotgan innovatsion mahsulotlar va xizmatlar iqtisodiyotning turli tarmoqlarida samaradorlikni oshirmoqda. Shu bilan birga, yoshlarning innovatsion faoliyati nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo'lib, jamiyatda yangicha fikrlash muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. O'zbekistonning fan, texnologiya va innovatsiyalarga qaratayotgan e'tibori – barqaror va inklyuziv taraqqiyotining asosiy omillari sifatida ularning ahamiyatini chuqur anglaganidan

dalolatdir deya tariflaydi: Xalqaro Ilm-Fan Kengashi Prezidenti Sir Peter Gluckman. [6:10b] O'zbekistonda yoshlarning innovatsion tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda moliyaviy, institutsional va tashkiliy mexanizmlar o'zaro uyg'un holda rivojlantirilmoqda. Shu navbatda aytib o'tish lozimki, mamlakatimiz hududida aynan mana shunday yo'nalishlar bo'yicha Innovatsion rivojlanish agentligi o'z faoliyati yurgizib kelmoqda. Innovatsion rivojlanish agentligi respublikamizda ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqaradigan va tashkillashtiradigan, mamlakatning intellektual va innovatsion salohiyatini oshirishga qaratilgan davlat xizmatlari ko'rsatadigan ijro etuvchi hokimyat organi hisoblanadi. Mamlakatda innovatsion rivojlanishni ta'minlash agentlikning bosh maqsadi hisoblanadi. Agentlik turli xil yo'nalishlarda faoliyat yuritadi. Jumladan ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlarini ishlab chiqadi, ilm-fan va innovatsion faoliyatni takomillashtiradi, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish loyihalarini tanlaydi va shu asosda bozorga yangi raqobatbardosh mahsulotlar chiqishini ta'minlaydi, shuningdek yoshlarning startap loyihalariga ko'maklashuvchi tizimni muvofiqlashtiradi va bularga o'xshash innovatsion rivojlanish strategiyasini shakllantiradi va ko'rib chiqadi.[6: 30b.] Shu bilan birga, startap faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun grantlar, subsidiyalar va imtiyozli kreditlar ajratish tizimi joriy etilgan. Bu yoshlarning innovatsion g'oyalarini moliyaviy jihatdan ta'minlashga xizmat qiladi. Ikkinchidan, innovatsion infratuzilma — texnoparklar, biznes-inkubatorlar va akseleratorlar — faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular yoshlarning loyihalarini rivojlantirish va tijoratlashtirish jarayonida muhim platforma vazifasini bajaradi. Mamlakatimizda hozirgi kunda 13 ta Yoshlar texnoparki mavjud. Shulardan biri Toshkent shahri Yashnabod tumanida joylashgan “ Yashnobod ” innovatsiya texnoparki hisoblanadi. Uchinchidan, ta'lim tizimida innovatsion yondashuv kuchaytirilib, talabalar va yosh olimlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga keng jalb etilishi ta'minlanmoqda. “Mirzo Ulug'bek vorislari” ko'rik-tanlovini shu asnoda keltirib o'tish joiz bo'ladi. Ushbu ko'rik-tanlovning muvaffaqiyatli 1-,2-,3-bosqich g'oliblariga BMHning 5,10, va 20 barobari miqdoridagi bir martalik pul mukofoti va diplom bilan taqdirlanadilar. Shuningdek, “Yoshlar – kelajagimiz” dasturi yoshlarning tadbirkorlik va innovatsion faoliyatini rivojlantirishda muhim instrument sifatida xizmat qilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar yoshlarning innovatsion rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu tashabbuslar yoshlarning bilim olish, kasb-hunar egallash va o'z g'oyalarini amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini kengaytirdi. Xususan, yoshlarni IT va raqamli texnologiyalar sohasiga keng jalb etish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda kreativ fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar amaliy natijalar bermoqda. Zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa sun'iy intellekt inson hayotining turli jabhalarida ulkan imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Ushbu siyosat natijasida yoshlar orasida startap madaniyati shakllanib, innovatsion loyihalar soni ortib bormoqda. Xususan, ayni sun'iy intellekt va axborot kommunikatsiya vositalari tez rivojlanayotgan bu davrda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ham qulay sharoit yaratish maqsadida ko'plab innovatsion texnologiyalar tatbiq etilgan. Bulardan biri eshitish muammosi bo'lgan fuqarolar va zaif eshituvchilar uchun jamiyat bilan erkin muloqot qilish, ta'lim olish va turli xizmatlardan foydalanish jarayonida qator to'siqlar mavjud bo'lib, shu nuqtayi nazardan, ishlab chiqilgan Farg'ona davlat texnika universiteti sun'iy intellekt yo'nalishi 4-kurs talabasi Valixonov Ilyosbek tomonidan ishlab chiqilayotgan “Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun” sun'iy intellekt asosidagi “ Ishora Tech” ishlanmasi alohida ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda.

Ushbu loyiha “ Eng yaxshi g’oya” nominatsiyasi g’olibi hisoblanadi. Bu esa milliy innovatsion tizimning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatmoqda. So’nggi yillarda yoshlar tomonidan amalga oshirilayotgan innovatsion loyihalar turli sohalarni qamrab olmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, farmatsevtika, qishloq xo’jaligi va sanoat sohaslarida muhim natijalarga erishilmoqda. Masalan, mobil ilovalar va raqamli platformalar orqali xizmatlar ko’rsatish tizimi takomillashtirilmoqda, sun’iy intellekt asosida ma’lumotlarni tahlil qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Farmatsevtika sohasida esa yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqilmoqda. Bunday loyihalar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki yangi ish o’rinlarini yaratish va aholining turmush darajasini yaxshilashga ham xizmat qiladi. Shunga qaramay, yoshlarning innovatsion faoliyatida qator tizimli muammolar mavjud. Ular orasida moliyaviy resurslarning yetarli emasligi, innovatsion boshqaruv ko’nikmalarining pastligi va mentorlik tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi alohida o’rin tutadi. Bundan tashqari, innovatsion loyihalarni tijratlashtirish jarayonida byurokratik to’siqlar va bozor mexanizmlarining yetarlicha shakllanmaganligi ham muammo sifatida namoyon bo’lmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish, venchur moliyalashtirish tizimini rivojlantirish hamda yoshlar uchun amaliy trening va mentorlik dasturlarini kengaytirish zarur. Shuningdek, hududlarda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish orqali barcha yoshlar uchun teng imkoniyatlar yaratish muhim ahamiyatga ega.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda, yoshlarning innovatsion tashabbuslarini qo’llab-quvvatlash mamlakatning barqaror va uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omillardan biridir. Innovatsion g’oyalar kundan kunga takomillashib bormoqda. Yoshlarni dunyoqarashini, ong va tafakkurining rivojlanishi uchun qilinayotgan sa’y harakatlar o’z amaliyotini ko’rsatib kelmoqda. Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar qamrovi ham kundan kunga ortib bormoqda. Shuningdek, O’zbekistonda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan siyosat yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Kelgusida ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali yoshlar o’z salohiyatini to’liq namoyon etib, innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishiga sezilarli hissa qo’shadi. Shu bois, yoshlarni qo’llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish dolzarb vazifa bo’lib qolmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev. Yoshlar – kelajagimiz. – Toshkent: O’zbekiston, 2018. – 488 b.
2. O’zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi. Innovatsion rivojlanish strategiyasi. – Toshkent, 2020. – 120 b.
3. Abdurahmonov. X.I. Monografiya – Toshkent: “EFFECT – D” nashriyoti, 2023. – 132 b.
4. Drucker, Peter F. Innovation and Entrepreneurship. – New York: Harper Business, 2014. – 288 p.
5. OECD. The Innovation Imperative: Contributing to Productivity, Growth and Well-Being. – Paris: OECD Publishing, 2015. – 248 p.
6. INNOVATOR jurnal. Toshkent: G’afur G’ulom nashriyoti, 2025. – 41 b.